

BO`LAJAK BOSHLANG`ICH SINF O`QITUVCHILARIDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH USULLARI.

Egamberdiyeva Lobarxon Olimjonovna

Pedagogika fani amaliyotida butunlay pedagogik jarayonni boshqaruv texnologiyalari nuqtai nazaridan tushunish uni tahlil qilish va bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarida iqtisodiy bilimlarni shakllantirish bo`yicha yurtimizda va xorijiy davlatlarda ish olib borgan olimlardan (R.SH.Axliddinov [33], A.X.Munavarov [79], L.F.Savinova [90], V.A.Slastenin [97]) tadqiqotlarini ko`rishimiz mumkin. Ularning tadqiqotlarida iqtisodiy bilimlarni egallash nafaqat texnika, menedjment balki ta`lim sohasida ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ochib berilgan.

SHaxs iqtisodiy madaniyatini shakllantirish kompleks yondashuvni taqozo etadi. Kompleks (complex - so`zi lotincha so`zdan olingan bo`lib, ulanish, kombinatsiyalashgan, umumiylilik, tizimlilik) degan ma`nolarni bildiradi.

Kompleks (lot.complexus - aloqa,bog`lanish; qo`shib, qamrab olish). Bir butunni tashkil qiluvchi narsalar, hodisalar, belgi-xususiyatlar majmui, yig`indisi [114; 397-b.].

Kompleks yondashuv nafaqat pedagogika sohasida balki qator sohalarda ham o`rganib kelinadi.

E.A.Shashenkova o`zining tadqiqotida kompleks yondashuvga quyidagicha ta`rif bergan: Kompleks yondashuv – bu tadqiqot usuli, kasb – hunar samaradorligini belgilaydigan turli xil omillarning o`zaro ta`sirini hisobga olish [121; 68-b.].

Huquqiy lug`atlarda kompleks yondashuv – tabiiy va madaniy omillarning ta`sirida shaxsning ruhiyatini o`rganish deya talqin qilinadi. Kompleks yondashuv – bu kasbiy ta`limni uning ijtimoiy – iqtisodiy, psixologik va pedagogik muammolarning birgalikda ko`rib chiqadigan tadqiqot usuli va integratsiyalashgan yondashuvning muhim talabi kasb ta`limi samaradorligini belgilaydigan turli xil omillarning o`zaro ta`sirini hisobga olishdir.

Kompleks va tizimli yondashuvlar integratsiyalashgan ilmiy bilimlarni birlashtirish shaklidir. Ma`lumki, ikkala yondashuv ham tadqiqot vazifalarini bajarish uchun turli fanlarga tegishli usullar, ob`ektlar, vositalar, dalillarni birlashtirishga qaratilgan.

Psixolog olim V.M.Sorokin, V.L.Kokorenko kompleks va tizimli yondashuvni quyidagicha farqlashadi: Kompleks –qisqa qilib aytganda, bolani har tomonlama o`rganish jarayonida nafaqat alohida funksiyalarini balki, uning psixikasini boshqa



jihatlar bilan o'zaro aloqasini ham o'rganishdir [100; 122-b.]. Bundan tashqari, kompleks shaxsni o'rganish jarayonida barcha mavjud ma'lumotlardan foydalanishni ham nazarda tutadi. Kompleks va tizimli yondashuvlarni o'rganish natijasida ta'lim jarayonida kompleks ta'limdan foydalanish zarurati mavjudligini tahlil qildik.

Kompleks ta'lim – o'quvchilar faoliyatini tashkil etishga qaratilgan o'quv texnologiyasi. O'quv jarayonida talabalarning kelajakdagи kasbiy faoliyatining predmeti va ijtimoiy tarkibiy faol o'qitish usullari (munozaralar, seminarlar, biznes o'yinlari va boshqalar) yordamida modellashtirishdir.

Ta'lim va o'quv jarayoniga kompleks yondashuv – bu pedagogik tizimlar va jarayonlarni loyihalash va ishlashni tashkil etish tamoyilidir. Bu ta'lim jarayonini loyihalashni, shuningdek tashqi ta'sir etuvchi omillarni hisobga olishni o'z ichiga oladi. Kompleks yondashuv va tizimli yondashuv bir – biriga juda yaqin bo'lgan terminlar. U pedagogik tizimning tarkibiy qismlariga (umumta'lim maktablari, tuman yoki shahar maktablari) va jarayonlariga (maqsadlar, prinsiplar, usullar, vositalar, shakllar) o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sirini aniqlashni talab etadi. Ta'lim vatarbiyaga kompleks yondashuv ta'lim va tarbiya jarayoni o'rtasidagi bog'liqlikni va ular o'rtasidagi qarama – qarshiliklarni bir maqsad yo'lida amalga oshirishni talab etadi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv-bilish faoliyatini pedagogik fasilitatsiya vositasida rivojlantirish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Chunki fasilitatsion ta'lim intellektual faoliyatni tashkil etishda, kognitiv, motivatsion komponentlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Fasilitatsiya inglizcha fasilitates so'zidan olingan bo'lib, "osonlashtirish" degan ma'noni bildiradi. U mojaroli manfaatlarni muvofiqlashtirishga mo'ljallangan bo'lib, faoliyatning haqiqiy rejasini ishlab chiqish bilan yakunlanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishda fasilitatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Fasilitatsion texnologiyaning mohiyati hamkorlikni vujudga keltirib muayyan muammoni kichik guruhlarda xal etishda fasilitator (lider) va kichik guruh talabalarini faolligini oshirishdir. Fasilitatsion texnologiyada bahs, munozara, fikrlar almashinushi, umumi echimga kelish va qaror qabul qilish (fasilitatsiya jarayoni) yuz beradi. jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy-ilmiy dunyoqarashi rivojlanadi. Muammoli vaziyatlarni samarali hal etish maqsadida kichik guruh faoliyatining vitagen, refleksiv ko'rinishi bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mazkur jarayonda o'z hayotiy tajribalari, g'oyalari, avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari, tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalardan foydalanib aniq qaror qabul qilishga erishadi. Fasilitatsion texnologiyadan foydalanish bo'lajak



boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy jihatdan rivojlantirib, kelgusida mustaqil hayot va kasbiy faoliyatidagi muammolarni hal etishga o'rgatadi hamda tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlaydi.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni fasilitatsion ta'limga tayyorlash, an'anaviy va fasilitatsion ta'limga modellarining qiyosiy tavsifi, pedagogik fasilitatsiya vositasida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasining ishlab chiqilishi talabalar iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishda samarali natijalarga olib keladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarda iqtisodiy madaniyatni shakllantirishdamaktabdagi o'quv predmetlari asosiy omil ekanligini unutmasligi kerak. Turli fanlardagi mavzular, masala va misollar, topshiriqlar orqali ham boshlang'ich sinf o'qituvchisida ham o'quvchilarda iqtisodiy madaniyat shakllanib boradi. Bolalarni hayotda iqtisodiy munosabatlarni tushunishga, ular voyaga etganlarida ko'radigan qiyinchilik va muammolarni tushunishga tayyorlash zarur.

Bolalarni tejamkorlik va iqtisod qilishga o'rgatish chindan ham murakkab. Bunday uquvga, albatta osonlikcha erishilmaydi. Chunki tejamkorlik shunchaki yirtmaslik, bulg'ammaslik, tashlab yubormaslik, sindirmaslik odati emas. Bu avvalo, axloqiy fazilat, ma'naviy madaniyat ko'rsatkichidir [118; 235-b.].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarda iqtisodiy tarbiya berishda quyidagi ma'lumotlarni vitagen ta'limga bilan maqbul ravishda masalan, non, SUV, elektr kabilarni asrash, tejamkorlikka o'rgatish yo'llarini bola tilida, sodda va aniq qilib bayon qilishni o'rganishlari lozim.

O'quvchilar iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishga va vitagen ta'limga doir masalalarni quyidagicha turkumlashimiz mumkin:

- a) tejamkorlikka doir masalalar;
- b) baho, miqdor va pulga doir masalalar;
- c) oila daromadiga doir masalalar;
- d) kasb-hunarga doir masalalar;
- e) ijara hisobiga doir masalalar.

Masalan, tejamkorlikka doir masala:

1.Buzuq jo'mrakdan bir soatda 18 l SUV oqib ketmoqda. SHu jo'mrakdan bir sutkada, 30 kunda qancha litr SUV bekorga oqadi?

Echish:

- a) jo'mrakdan 1 sutkada qancha SUV oqadi? $18 \text{ l} * 24 = 432 \text{ l}$.
- b) 30 kunda qancha SUV oqadi? $30 * 24 = 720$ $720 * 18 \text{ l} = 12960 \text{ l}$.

2.Binoda ehtiyoj bo'lmasa – da, bir kuni 2 soat davomida lampochkalar yoniq qolgan. Bunga ikki kilovatt – soat elektr quvvati sarflanadi. Bunday binolar shaharda





2500 ta ekanligi aniqlandi. Bir kilovatt – soat elektr quvvati 11 so‘m 30 tiyin bo‘lsa, bir soat davomida necha so‘m behuda elektr sarflangan?

Echish:

- a) binolardagi lampochkalar necha soat yoniq qolgan? $2500 * 2 = 5000$ soat.
- b) bir soat davomida necha so‘m behuda sarflangan?

$$11 \text{ so‘m } 30 \text{ tiyin} = 1130 \text{ tiyin} \quad 1130 * 2500 = 2825000 \text{ tiyin} = 28250 \text{ so‘m.}$$

Ona tili, o‘qish darslarida tejamkorlik haqida maqollar yozdirish ham ahamiyatga ega: YOlib eyishga tog‘ ham chidamaydi. Saqlasang-ming kunlik saqlamasang-bir kunlik. Hisobni bilmagan hamyonidan ayrilar. Toma-toma ko‘l bo‘lur, tommay qolsa cho‘l bo‘lur.

Iqtisodiy tushunchalar majmuasini shakllantirish texnologiya mazmunini takomillashtirishning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchi iqtisodiy tushunchalar mohiyatini qanchalik to‘liq va atroficha tushunib etgan paytdagina iqtisodiy sohadagi faoliyatini rejali va samarali olib bora oladi.

